



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



Journal of Academic Research and
Trends in Educational Sciences
(JARTES)

VOL. 2, ISSUE 1

ISSN 2181-2676

[www.ijournal.uz](http://ijournal.uz)

FOREIGN EXPERIENCES IN THE MANAGEMENT OF THE UTILITY SECTOR

Alisher Sultanov¹

University of Geological Sciences

DOI: [10.5281/zenodo.15716793](https://doi.org/10.5281/zenodo.15716793)

Article History	Abstract
Received: 15.05.2025	This article analyzes the role of advanced foreign experiences in improving the system of utility services in the Republic of Uzbekistan. The approaches to the management of the utility sector of developed countries such as Germany, Sweden, Singapore and Japan are studied, and their effective management models are highlighted. The possibilities of adapting these experiences to the conditions of Uzbekistan are also discussed. The article substantiates the relevance of using foreign practices in order to improve the stability and quality of utility services and create convenience for the population.
Accepted: 23.06.2025	

Keywords: utilities, management experience, foreign practice, Germany, Sweden, Singapore, Japan, stability, reforms, Uzbekistan.

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ PhD, Associate Professor, Head of the Department of Quality Control of Education, University of Geological Sciences, Uzbekistan

KOMMUNAL SOHANI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI


**KALIT SO'ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:**

komunal xizmatlar, boshqaruv tajribasi, xorijiy amaliyot, Germaniya, Shvetsiya, Singapur, Yaponiya, barqarorlik, islohotlar, O'zbekiston.

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida communal xizmatlar tizimini takomillashtirishda ilg'or xorijiy tajribalarning o'rni tahlil qilinadi. Germaniya, Shvetsiya, Singapur va Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarning communal sohani boshqarishdagi yondashuvlari o'rganilib, ularning samarali boshqaruv modellari yoritiladi. Shuningdek, mazkur tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Maqola communal xizmatlarning barqarorligi, sifatini oshirish va aholiga qulayliklar yaratish yo'lida xorijiy amaliyotlardan foydalanishning dolzarbligini asoslaydi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida communal xizmatlar tizimini isloh qilish, aholi uchun qulay, sifatli va barqaror xizmatlar ko'rsatishni ta'minlash bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, ularning eng yaxshi amaliyotlarini mahalliy sharoitga moslashtirish alohida ahamiyatga ega. Mazkur maqolada rivojlangan davlatlar – Germaniya, Shvetsiya, Singapur va Yaponiya tajribalari misoldida communal sohani samarali boshqarish mexanizmlari tahlil qilinadi.



1-rasm. Xorijiy tajribalarning samaradorlik taqqoslov jadvali

Ushbu rasmdan ko'rinish turibdiki tajriba o'tkazilgan 4 ta davatlarda samaradorlik ko'rsatkichklari qarib 10 ballik shkaladan 10 ballni tashkil qilgan. Bu esa o'z navbatida aholining communal xizmatlardan to'laqonli rozi ekanligini bildiradi. Shu bilan birga davlat tomonidan ushbu sohaga yaxshi e'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi. Quyida ushbu davlatlarning communal sohadagi asosiy mezonlarini ko'rib chiqamiz.

Germaniya tajribasi – mahalliy avtonomiya va shaffof boshqaruv. Germaniya

kommunal xizmatlarni boshqarishda decentralizatsiya modelidan foydalanadi. Ya'ni, xizmatlarning katta qismi mahalliy hokimiyatlar (munitsipalitetlar) zimmasiga yuklatilgan. Bu yondashuv xizmatlarning hududiy ehtiyojlarga moslashtirilgan holda taklif etilishiga imkon yaratadi. Shahar va tuman darajasida tashkil etilgan communal korxonalar (Stadtwerke) suv ta'minoti, chiqindi boshqaruvi, elektr energiyasi kabi sohalarda faoliyat yuritadi. Ular qonunchilik asosida tartibga solinadi va moliyaviy hisobotlari aholi uchun ochiq e'lon qilinadi. Shuningdek, Germaniyada communal xizmatlar sohasida davlat-xususiy sheriklik (PPP) keng qo'llaniladi.

Shvetsiya tajribasi – ekologik barqarorlik va raqamlashtirish. Shvetsiya communal xizmatlarda ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslangan boshqaruvni joriy etgan. Mamlakatda chiqindilarni qayta ishslash, suv resurslarini toza saqlash va energiya tejamkor tizimlardan foydalanish keng yo'lga qo'yilgan. Qayta ishlangan chiqindilar asosida elektr energiyasi va issiqlik ishlab chiqariladi. Kommunal xizmatlar avtomatlashtirilgan tizimlar orqali boshqariladi, bu esa xizmatlar sifatini oshiradi. Elektron to'lov tizimlari, onlayn monitoring va billing qulayliklari orqali xizmatlar aholiga ochiq va ishonchli tarzda yetkaziladi.

Singapur tajribasi – yagona boshqaruv tizimi va texnologik innovatsiyalar. Singapurda communal xizmatlar markazlashtirilgan tizim asosida yagona davlat agentligi – PUB tomonidan boshqariladi. Bu model suv, elektr, gaz va chiqindilar bilan ishslashda yaxlit va muvofiqlashtirilgan yondashuvni ta'minlaydi. Suv resurslarini boshqarish bo'yicha NEWater texnologiyasi orqali oqova suvlar qayta ishlanadi va sanoat ehtiyojlari uchun foydalaniladi. Yagona billing va monitoring platformalari orqali real vaqt rejimida nazorat qilinadi.

Yaponiya tajribasi – xavfsizlik, ishonchlilik va ilg'or texnologiyalar. Yaponiya – tabiiy ofatlar ko'p yuz beradigan davlat sifatida, communal infratuzilmalarni barqarorlik va zilzilabardoshlik tamoyillari asosida rivojlantirgan. Har bir communal obyekt zilzilaga chidamli tarzda loyihalashtirilgan. Yaponiya "aqli shaharlar" konsepsiysi asosida aqli tarmoqlar, sensorli nazorat, energiya samarador qurilmalarni keng qo'llaydi. Aholi bilan ijtimoiy muloqot kuchli yo'lga qo'yilgan.

Xulosa va tavsiyalar

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, communal xizmatlarni samarali boshqarishda quyidagi omillar muhim:

- Mahalliy avtonomiya
- Davlat-xususiy sheriklik
- Raqamlashtirish va innovatsiyalar
- Ekologik barqarorlik
- Aholi bilan ochiq muloqot.

O'zbekiston ushbu ilg'or amaliyotlarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali xizmatlar sifati va aholining qoniqish darajasini oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Asian Development Bank (2021). *Kommunal xizmatlar tizimini raqamlashtirish: Jahon amaliyoti*. Manila: ADB.
2. OECD (2020). *Davlat-xususiy sheriklik modeli: Kommunal infratuzilmadagi islohotlar*. Parij: OECD nashriyoti.
3. World Bank Group (2022). *Barqaror kommunal xizmatlar uchun xalqaro yondashuvlar*. Vashington: Jahon Banki nashriyoti.
4. Bundesministerium für Wirtschaft und Klimaschutz (2021). *Germaniyada "Stadtwerke" modeli asosida mahalliy kommunal xizmatlarni boshqarish*. Berlin.
5. Swedish Environmental Protection Agency (2021). *Shvetsiyada chiqindilarni boshqarish va energiyaga aylantirish texnologiyalari*. Stokgolm.
6. PUB Singapore (2022). *Singapurda suv resurslarini raqamli boshqarish tajribasi*. Singapur.
7. Ministry of Land, Infrastructure, Transport and Tourism of Japan (2020). *Yaponiyada zilzilabardosh kommunal infratuzilmani boshqarish*. Tokio.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli Farmoni. *Kommunal xizmatlar sohasini isloh qilish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida*.
9. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (2023). *Kommunal xizmatlar tizimini modernizatsiyalash strategiyasi*. Toshkent.
10. Karimov I., Rashidova M. (2022). *Xorijiy tajribalar asosida O'zbekistonda kommunal boshqaruvni takomillashtirish yo'llari*. – Ilmiy-amaliy jurnal “Iqtisodiyotni isloh qilish”, №4.